O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATAMURODOV SHODIYOR URALOVICH

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARI ORQALI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq - 2026

UO‘K: 796: 373.3.018 (1-4)

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавнение автореферата диссертация докторска философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Atamurodov Shodiyor Uralovich
Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish.....3

Атамуродов Шодиёр Уралович
Привитие учащимся начальных классов национальных и общечеловеческих ценностей посредством физкультурно-спортивных мероприятий…….....29

Atamurodov Shodiyor Uralovich
Instilling national and universal values through physical education and sports activities among primary school students…….....58

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works.....62

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

ATAMURODOV SHODIYOR URALOVICH

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARI ORQALI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SINGDIRISH

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Chirchiq - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped749 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jizzax davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifaning www.jtsu.uz va «Ziyonet» Axborot-ta’lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Axmedov Furqat Qo‘ldoshevich** pedagogika fanlari nomzodi, professor
Rasmiy opponentlar:	**Shopulatov Abdimalik Nurullayevich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Adizov Baxtiyor Raxmonovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Yetakchi tashkilot:	**Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 raqamli Ilmiy kengashining 2026-yil “____” _____soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilarlar ko‘chasi, 19-uy. Tel.: (0-370) -717-17 79, 717-27-27, faks.: (0-370) 717-17-76, Veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti “A” binosi, 1-qavat, 118-anjumanlar zali).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Axborot – resurs markazida tanishish mumkin (0274 raqami bilan ro‘yxatga olingan). (111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi, 19-uy, Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks:(0-370) 717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil “___” _____kuni tarqatildi.
(2026 yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, p.f.d.(DSc), professor

G‘.S.Xo‘jamkeldiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash Ilmiy kotibi, p.f.d (DSc), dotsent

M.S.Olimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, p.f.d.(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo miqyosida o‘sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida voyaga yetkazish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda tarixiy an’ana va urf-odatlarga hurmat munosabatini shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xalqning boy tarixiy merosi, milliy o‘yinlari va qadriyatlarini singdirish orqali ularda vatanparvarlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, halollik va insonparvarlik fazilatlarini shakllantirish imkoniyatlari kengaymoqda. Shu sababli ta’lim-tarbiya jarayonida xalq o‘yinlari va milliy harakat an’analarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish, ajdodlardan meros bo‘lib kelayotgan qadriyatlarni yosh avlod ongiga singdirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bois, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda xalq o‘yinlaridan maqsadli foydalanish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda globallashuv jarayonlari sharoitida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash, etnopedagogik merosning tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish hamda jismoniy tarbiya vositalarini ta’lim-tarbiya jarayoniga uyg‘unlashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, xalq o‘yinlari va harakatli o‘yinlar vositasida o‘quvchilarda vatanparvarlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, halollik kabi qadriyatlarni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish mazmunini tizimlashtirish, ularning shakllanganlik darajasini baholash, maktab–oila–mahalla hamkorligini ta’lim jarayoniga integratsiyalash masalalari dolzarb pedagogik yo‘nalish sifatida o‘rganilmoqda. Biroq harakatli o‘yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini yagona pedagogik tizimga birlashtirish, qadriyatlarni bosqichma-bosqich singdirishga yo‘naltirilgan integrativ dasturni ishlab chiqish va uning samaradorligini asoslash zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda o‘sib kelayotgan yosh avlodni jismonan sog‘lom, ma’nan barkamol etib tarbiyalash, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish, ta’lim-tarbiya jarayonida xalqning boy ma’naviy merosi va milliy an’analaridan samarali foydalanishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitishni tubdan takomillashtirish, “…o‘quvchilarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishga keng jalb etish, maktab sport klublari faoliyatini yo‘lga qo‘yish hamda jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining kasbiy mahoratini rivojlantirish”[1] kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida harakatli o‘yinlardan foydalanish ularda vatanparvarlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, halollik va bag‘rikenglik kabi qadriyatlarni shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Shu sababli harakatli o‘yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini boshlang‘ich ta’lim mazmuniga maqsadli singdirish, milliy va umuminsoniy

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik vosita va usullarni takomillashtirish zarurati mavzuning dolzarbligini belgilab bermoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6099-son “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2024-yil 15-noyabrdagi PQ-392-son “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o‘qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi: Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamiz olimlari tomonidan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tarbiyalash jarayonida jismoniy tarbiya va sport vositalaridan foydalanish, xalq va harakatli o‘yinlarni ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish, shuningdek, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilar ongiga singdirishning pedagogik imkoniyatlari keng tadqiq etilgan. Xususan, T.Abdullayev, O.Musurmonova, Q.N.Nazarov, K.D.Yarashev, M.Quronov, J.Tulenov, M.S.Axmatov, B.R.Adizov, F.Q.Axmedov, Sh.Q.Mardanov, R.S.Salamov, F.A.Kerimov, Sh.Z.Taylanova, I.I.Saidov, B.A.Maxmudov, A.N.Shopo‘latov, N.I.Davronov [2] kabi olimlarning ilmiy

[2] Абдуллаев Т. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: педагогика фанлари номзоди диссертацияси. – Т., 1992. – 158 б.; Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчиларининг маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: педагогика фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 1993. – 364 б.; Назаров Қ.Н. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси: фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТошДУ, 1996. – 36 б.; Ярашев К.Д. Оммавий соғломлаштирувчи жисмоний тарбия ва халқ миллий ўйинлари бўйича мутахассислар тайёрлаш масалалари: монография. – Тошкент: ЎзДЖТИ нашриёти, 1997. – 92 б.; Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: педагогика фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 1998. – 316 б.; Туленов Ж. Миллий қадриятлар ва ижтимоий тараққиёт. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 22 б.; Ахматов М.С. Узлуксиз таълим тизимида оммавий спорт-соғломлаштириш ишларини самарали бошқариш. – Тошкент, 2001. – 280 б.; Адизов Б.Р. Бошланғич таълимни ижодий ташкил этишнинг назарий асослари: педагогика фанлари доктори диссертацияси. — Тошкент, 2003. — 280 б.; Ахмедов Ф.Қ. Жисмоний таълим жараёнини миллий анъаналар воситасида ташкил этишнинг дидактик асослари: педагогика фанлари номзоди диссертацияси. – Жиззах, 2006. – 158 б.; Марданов

izlanishlarida jismoniy tarbiya va sportning nazariy-uslubiy asoslari, aholi salomatligini mustahkamlashga qaratilgan ommaviy sog‘lomlashtirish faoliyati, o‘quvchilarda ma’naviy madaniyatni shakllantirish, qadriyatlar tizimini rivojlantirish, milliy an’analarni ta’lim-tarbiya jarayoniga integratsiya qilish hamda milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari yoritilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlari I.L.Djurkina, T.V.Golovina, R.A.Laxin, Ye.V.Shvesova, B.X.Kalandarbekova [3] larning ilmiy ishlarida jismoniy tarbiya va sportning shaxs kamolotidagi o‘rni hamda ta’lim-tarbiya jarayoni bilan uzviy bog‘liqligi yoritilgan. Mazkur olimlar jismoniy tarbiya vositalari orqali shaxsning jismoniy rivojlanishi, intizomlilik, iroda, mas’uliyat kabi sifatlarini shakllantirish masalalariga alohida e’tibor qaratganlar. Shuningdek, mashg‘ulotlar mazmunini ta’lim oluvchilarning yosh va individual xususiyatlariga moslashtirish, tarbiyaviy ta’sir vositalaridan maqsadli foydalanish hamda jismoniy tarbiyaning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan.

Xorijiy mamlakat olimlari A.J.Toynbee, M.Rokeach, F.Fukuyama, S.H.Schwartz va S.P.Huntington[4]larning ilmiy ishlarida millat, madaniyat va qadriyatlarning jamiyat

---

Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий қадриятлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: педагогика фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 2006. – 302 б.; Саломов Р.С. Жисмоний тарбия назарияси ва услубияти: дарслик. – Тошкент, ИТА-ПРЕСС, 2015. — 269 б.; Керимов Ф.А. Спортда илмий тадқиқотлар. – Тошкент, 2018. – 380 б.; Тайланова Ш.З. Бўлажак ўқитувчиларда қадриятлар тизимини ривожлантириш: монография. Тошкент, 2018. – 168 б.; Саидов И.И. Бошланғич синф ўқувчиларини жисмоний тарбия машғулотларида соғломлаштиришнинг ташкилий-услубий хусусиятлари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2018 – 26 б.; Махмудов Б.А. Миллий ўйин воситасида бошланғич синф ўқувчиларини эстетик тарбиялашнинг дидактик имкониятлари: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (ПҳД) диссертацияси автореферати. – Нукус, 2018. – 22 б.; Шопулатов А.Н. Жисмоний тарбия ва спорт мутахассисларида маънавий қадриятларни шакллантириш механизмларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Чирчиқ, 2019. – 26 б.; Давронов Н.И. Қадриятли ёндашув асосида бошланғич синф ўқувчиларида жисмоний сифатларни ривожлантиришнинг педагогик асослари: диссертация. – Бухоро, 2022. – 126 б.

[3] Журкина И.Л. Формирование нравственных отношений подростков в спортивной деятельности: дис. … канд. пед. наук: – Магнитогорск, 2000. – 160 с.; Головина Т.В. Формирование ценностного отношения к физической культуре у младших школьников: дис. … канд. пед. наук: – Омск, 2003. – 199 с.; Лахин Р.А. Народная игра как средство социально-нравственного воспитания младших школьников и подростков (на материале традиционной игровой практики Кубани): дис. … канд. пед. наук: – Курск, 2009. – 251 с.; Швецова Е.В. Формирование патриотизма у младших школьников средствами народной педагогики: дис. … канд. пед. наук: – Чебоксары, 2010. – 258 с.; Каландарбекова Б.Х. Педагогический процесс как основа нравственного воспитания на уроках физической культуры средствами таджикских национальных подвижных игр (на материале учащихся 5–7 классов общеобразовательных школ Республики Таджикистан): дис. … канд. пед. наук: – Душанбе, 2018. – 187 с.

[4] Тойнби А. Дж. Изучение истории. – Лондон: Oxford University Press, 1961. - 12 т.; Рокич М. Природа человеческих ценностей. – Нью-Йорк: Free Press, 1973. – 438 с.; Фукуяма Ф. Конец истории и последний человек. New York: Free Press, 1992. – 418 с.; Schwartz S.H. Universals in the Content and Structure of Values: Theoretical Advances and Empirical Tests // Advances in

taraqqiyoti hamda shaxs shakllanishidagi o‘rni turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan. A.J.Toynbee, F.Fukuyama va S.P.Huntington sivilizatsiyalar taraqqiyoti, madaniy qadriyatlarning jamiyat barqarorligiga ta’siri masalalarini tahlil qilganlar. Shu bilan birga qadriyatlarni shaxs xulq-atvori va ijtimoiy faoliyatini yo‘naltiruvchi muhim omil sifatida talqin qilib, ularni tasniflash, tuzilmasini aniqlash hamda tizimli o‘rganishning nazariy asoslarini ishlab chiqqanlar.

O‘tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning mazmuni, ularning shaxs tarbiyasidagi o‘rni hamda jismoniy tarbiya vositalarining pedagogik imkoniyatlari keng o‘rganilgan. Biroq boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga harakatli o‘yinlar vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni maqsadli singdirish, mazkur jarayonning pedagogik mexanizmlarini belgilash va integrativ yondashuv asosida tashkil etish masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Jizzax davlat pedagogika universitetining 2019-2024 yillarga mo‘ljallangan ilmiy tadqiqot ishlari konsepsiyasi va istiqbol rejasidagi “Ta’lim tizimida jismoniy tarbiya va sportni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalari” mavzusidagi ilmiy tadqiqotlari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos bo’lgan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari tushunchasini so‘rovnoma asosida o‘rganish hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ular tasnifini aniqlash;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik modelini ishlab chiqish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun jismoniy tarbiya va sport musobaqa tadbirlar rejasini ishlab chiqish orqali maktab – oila – mahalla o‘rtasida hamkorlik aloqalarini kengaytirish mexanizmini takomillashtirish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur ishlab chiqish hamda uning samaradorligini ilmiy pedagogik jihatdan asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish jarayoni tanlab olingan.

Experimental Social Psychology. – 1992. – Vol. 25. – С. 1–65. Хантингтон С. П. Столкновение цивилизаций и перестройка мирового порядка. — Нью-Йорк: Simon & Schuster, 1996. – 367 с.

Tadqiqotning predmetini boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada uning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi ilmiy-metodik va pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o‘rganish, tahlil qilish, umumlashtirish, kuzatish, so‘rovnoma, test, suhbat, pedagogik hodisalarning tizimli tahlili, matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, halollik va mas’uliyatga munosabatni ifodalovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularni aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini idrok etish xususiyatlarini qamrab oluvchi pedagogik diagnostika hamda so‘rovnoma ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish hisobiga aksiologik tasnif, baholash mezonlari va namoyon bo‘lish darajalari aniqlashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularni shakllantirishning konseptual modeli maqsadli, mazmuniy, faoliyatli, motivatsion-emotsional va natijaviy komponentlarning uzviy bog‘liqligi, qadriyatlarga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir mexanizmlarini model tarkibiga kiritish bilan takomillashtirilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzi, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport musobaqa-tadbirlarini rejalashtirishga mo‘ljallangan maktab-oila-mahalla hamkorlik moduli ta’lim-tarbiya subyektlarining vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirish, hamkorlik aloqalarining izchilligini ta’minlash natijasida tarbiyaviy ta’sir samaradorligini oshirishgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur jismoniy tarbiya, tarbiyaviy faoliyat, ijtimoiy muhit omillarini birlashtiruvchi maqsadli, mazmuniy, faoliyatli va reflektiv-baholash modullari bilan tarkibiy jihatdan boyitish hisobiga milliy o‘zlikni anglash, vatanparvarlik, jamoaviylik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini idrok etish xususiyatlari, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularning aksiologik tasnifi, mezonlari va namoyon bo‘lish darajalarini aniqlashga mo‘ljallangan diagnostik so‘rovnoma hamda baholash mezonlari amaliyotga tatbiq etilgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularni shakllantirishning konseptual modeli tarkibidagi maqsadli, mazmuniy, faoliyatli, motivatsion-emotsional va natijaviy komponentlardan foydalanishga doir metodik tavsiyalar majmuasi tayyorlangan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga yo‘naltirilgan tarbiyani amalga oshirishning metodik yondashuvi jismoniy mashqlar, milliy harakatli o‘yinlar va sport tadbirlarini

qadriyatlar mazmuni bilan integratsiyalash hamda tarbiyaviy ta’sirni maqsadli, izchil va bosqichma-bosqich tashkil etishga qaratilgan amaliy mexanizmlar joriy etilgan;

milliy qadriyatlarni singdirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur mazmunidagi maqsadli, mazmuniy, faoliyatli va reflektiv-baholash modullaridan foydalanish uchun “Boshlang‘ich sinflarda jismoniy madaniyat darslari” nomli uslubiy qo‘llanma hamda “Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma tayyorlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo‘llanilgan nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalaridan olinganligi, tadqiqotning mantiqiy tizimlashgan dasturi, qo‘llanilgan usullari, real pedagogik amaliyot va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining tahlili, tahlilning matematik-statistik metodlari vositasida asoslanganligi, ko‘rsatib o‘tilgan taklif hamda tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi, erishilgan natijalarning tegishli davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ijobiy xulosalar berilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv tarbiya jarayoni samaradorligi, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirishning pedagogik xususiyatlariga oid ilmiy-pedagogik qarashlar, nazariy yondashuvlar hamda uslubiy tavsiyalar bilan boyitilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish jarayonining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, mexanizmi va uni tashkil etish yo‘llari, shakllari, metodlarini qo‘llashga oid tavsiyalardan umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv-tarbiya jarayoni mazmunini boyitish, xalq an’analari, qadriyatlari, urf-odatlari, jismoniy tarbiya va sport bayramlarini amalga oshirishga bevosita rahbarlik qiladigan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini takomillashtirishga doir yo‘riqnomalar ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga oid tadqiqotning ilmiy natijalari asosida:

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatanparvarlik, hamjihatlik, o‘zaro hurmat, halollik va mas’uliyatga munosabatni ifodalovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularni aniqlash maqsadida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini idrok etish xususiyatlarini qamrab oluvchi pedagogik diagnostika hamda so‘rovnoma ko‘rsatkichlarini tizimlashtirish bo‘yicha takliflar “Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga joriy etilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-son buyrug‘iga asosan berilgan 892-074 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, yuqori natija ko‘rsatgan o‘quvchilar soni 249 nafardan 348 nafarga ko‘paygan, past darajadagi o‘quvchilar esa 253 nafardan 90 nafargacha qisqargan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularni shakllantirishning konseptual

modeli maqsadli, mazmuniy, faoliyatli, motivatsion-emotsional va natijaviy komponentlarning uzviy bog‘liqligi, qadriyatlarga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir mexanizmlarini model tavsiyalar “Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-son buyrug‘i asosida berilgan 892-074 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, baholash mezonlariga ko‘ra yuqori daraja 5 ball, o‘rta daraja 4 ball va past daraja 3 ball sifatida qabul qilindi. Hisob-kitob natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 3,99 dan 4,35 ga oshib, o‘sish koeffitsiyenti 1,09 ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 3,89 dan 3,95 ga ko‘tarilib, o‘sish koeffitsiyenti 1,00 darajasida qolgan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzi, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport musobaqa-tadbirlarini rejalashtirishga mo‘ljallangan maktab-oila-mahalla hamkorlik moduli ta’lim-tarbiya subyektlarining vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirish, hamkorlik aloqalarining izchilligini ta’minlash oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilib, ular “Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019-yil 4-oktyabrdagi 892-son buyrug‘i asosida berilgan 892-074 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish texnologiyalarining didaktik mazmuni boyitilib, o‘quvchilarining yuqori o‘zlashtirish darajasi 13,2 % ga yaxshilangan;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy qadriyatlarni singdirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur jismoniy tarbiya, tarbiyaviy faoliyat, ijtimoiy muhit omillarini birlashtiruvchi maqsadli, mazmuniy, faoliyatli va reflektiv-baholash modullari bilan tarkibiy jihatdan boyitish tavsiyalar “Boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 11-iyuldagi 11-05-3706/04-sonli dalolatnomasi). Natijada, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘zlashtirish uchun zarur pedagogik sharoitlar yaratilib, o‘rta o‘zlashtirish darajasi esa 8,6 % ga oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari, jumladan, 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining buyrug‘i asosida 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 ta respublika, 1 ta xorijiy davriy nashrda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, 125 sahifali matn, 8 ta rasm, 14 ta jadval, xulosalar va amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilgan darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, tadqiqotdan olingan natijalarning ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriy etilishi, aprobatsiyasi va e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma’lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish, ma’naviy axloqiy tarbiyasini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari ochib berilgan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirishda tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi chiqarilgan qaror va farmonlar, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi qonun”ni 4-moddasida ta’lim va tarbiyaga milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning singdirilganligi alohida belgilab qo‘yilgan. 51-moddasida esa voyaga yetmagan ta’lim oluvchilarning ota-onasi va boshqa qonuniy vakillari: o‘z bolalarini insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish ruhida tarbiyalash masalalari belgilab berilgan.

Mazkur hujjat jismoniy tarbiya va sport faoliyatini nafaqat sog‘lomlashtirish vositasi, balki shaxsning ma’naviy-axloqiy sifatlarini shakllantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida qarash zarurligini asoslaydi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinfdan milliy va harakatli o‘yinlar, sport o‘yinlari va jamoaviy sport musobaqalar orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik va milliy g‘urur kabi qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni samarali singdirish nazarda tutilgan.

Buyuk ajdodlarimiz va mutafakkirlarimiz asarlarida jismoniy tarbiya masalasi inson kamolotining muhim omili sifatida talqin etilgan. Jumladan, “Alpomish” dostonida qahramonning jismoniy baquvvatligi, tabiat qo‘ynida chiniqishi va alp sifatida shakllanishi orqali mardlik, jasorat va vatanparvarlik kabi his-tuyg‘ulari ifoda etilgan. Abu Ali ibn Sino esa inson fazilatlari qatorida jasurlik, aqllilik va ziyraklikni alohida ta’kidlab, ularni jismoniy va ruhiy barkamollik bilan uzviy bog‘laydi.

Alisher Navoiy asarlarida ham jismoniy va aqliy kamolot uyg‘unligi asosiy mezon sifatida yoritilib, Farhod obrazi orqali jismoniy chiniqishning inson salohiyatini oshirishdagi o‘rni ko‘rsatib berilgan. Abdulla Avloniy esa jismoniy tarbiyani sog‘lom fikr, yaxshi axloq va ilm olishning zaruriy sharti sifatida baholab, “jism va ruh bir butun” ekanligini ilmiy-pedagogik asosda izohlaydi.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya va sport inson salomatligini mustahkamlash, ish qobiliyatini oshirish, uzoq umr ko‘rish va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. U nafaqat ta’lim jarayonida, balki sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar, sport musobaqalari hamda mahalla muhitida ham samarali tashkil etilishi zarur.

Tadqiqot davomida o‘quvchilarda nafaqat jismoniy tayyorgarlik, jismoniy sifatlar emas balki ma’naviy axloqiy va tarbiyaviy tomonlarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish zarur. Shuningdek, zamonaviy axborot makonida turli zararli g‘oyalar va salbiy axborot oqimlari yoshlarning mafkuraviy immunitetiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi inobatga olinib, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali ularda sog‘lom dunyoqarash, mustahkam hayotiy pozitsiya va milliy qadriyatlarga sodiqlikni shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida belgilandi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish ularning jismoniy barkamolligi bilan bir qatorda ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatini singdiruvchi samarali pedagogik tizim ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotning metodologik asoslari qo‘llanilgan usullar hamda tajriba-sinov ishlari jarayoni batafsil yoritilgan.

Pedagogik tadqiqot ishlariga 1491 nafar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jalb etilgan, ya’ni tajriba guruhidagi o‘quvchilar soni 746 nafarni, nazorat guruhida esa 745 nafarni tashkil etdi. Tadqiqotni amalga oshirishda adabiyotlar tahlili, og‘zaki suhbat, pedagogik kuzatish, test, so‘rovnoma, pedagogik tajriba hamda matematik-statistik tahlil usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Mazkur metodlar o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish jarayonini har tomonlama o‘rganish, baholash va ilmiy asoslash imkonini berdi.

Tadqiqotlar 2021-2026-yillargacha bo‘lgan davrda o‘tkazilgan va bir necha ketma-ket bosqichlardan tashkil topgan.

Tadqiqot uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda (2021–2022 yy.) mavzuga oid ilmiy-nazariy va metodik adabiyotlar chuqur tahlil qilinib, tadqiqotning dolzarbligi asoslanib, maqsad va vazifalar aniqlashtirildi. Shuningdek, umumta’lim maktabining 1-11 sinflarga mo‘ljallangan me’yoriy hujjatlari (o‘quv rejalar, milliy o‘quv dasturlar) shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya dars mashg‘ulotlari va sport tadbirlari o‘rganildi hamda amaldagi me’yoriy hujjatlarga ko‘ra Jizzax, Samarqand, Buxoro viloyatlaridagi belgilangan umumta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tomonidan o‘tkazilgan dars mashg‘ulotlari va sport tadbirlari kuzatildi va tahlil qilindi.

O‘qituvchilar bilan suhbatlar va pedagogik kuzatishlar asosida jismoniy tarbiya darslari hamda sport tadbirlarida qadriyatlarga yo‘naltirilgan tarbiyaviy yondashuvlarning qo‘llanilish holati aniqlandi. Olingan dastlabki ma’lumotlar tadqiqotning keyingi bosqichlari uchun ilmiy-metodik asos bo‘lib xizmat qildi.

1-jadval

Boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya darslari va sport tadbirlarini kuzatish natijalari

№	Viloyat	Tuman	Maktab	Sinf	O’qituvchi	Dars mashg’uloti va sport tadbirlari	O’quvchilarga e’tibor berilgan jihatlari	O‘quvchilarga e’tibor Berilmagan jihatlari
1	Jizzax	Sh.Rashidov	46	3	J.A	Gimnastika	Mashg‘ulot jarayonida o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, umumiy jismoniy tayyorgarligini va harakat faolligini oshirish, jismoniy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, chiniqish va harakat xavfsizligini ta’minlash masalalariga e’tibor qaratilgan. Harakatli o‘yinlar orqali o‘quvchilarning faol ishtiroki va jismoniy harakatlarini rag‘batlantirishga urg‘u berilgan.	Mashg‘ulot jarayonida jamoaviylik, o‘zaro hurmat, mas’uliyat, intizom, hamjihatlik, tartiblilik, o‘zaro yordam va vatanparvarlik kabi ijtimoiy-axloqiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lsa-da, mazkur sifatlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirgan holda maqsadli shakllantirish, ularning mazmunini harakatli o‘yinlar bilan bog‘lash hamda natijalarini baholashga qaratilgan aniq pedagogik yondashuv va usullar yetarlicha tizimlashtirilmagan.
2			40	3	O.E	Harakatli o‘yinlar		
3			44	4	I.O	Ota-onalar bilan estafeta o'yinlari		
4	Samarqand	Bulung‘ur	43	3	B.N	Gimnastika		
5			12	4	S.Q	Harakatli o‘yinlar		
6			60	3	R.G‘	Ota-onalar bilan estafeta o'yinlari		
7	Buxoro	G‘ijduvon	34	4	V.O	Gimnastika		
8			2	3	N.S	Harakatli o‘yinlar		
9			32	3	Z.Sh	Ota-onalar bilan estafeta o'yinlari		

Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslari, sinfdan tashqari jismoniy tarbiya ishlari va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya faoliyati kuzatilib, dastlabki so‘rovnomalar Buxoro, Samarqand va Jizzax viloyatidagi umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘tkazilgan va o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy va tarbiyaviy pedagogik tomonlari o‘rganilib, tahlil qilingan. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks etgan.

2-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya va sport faoliyati hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga oid bilim va munosabatlarini aniqlash bo‘yicha dastlabki so‘rovnoma natijalari (n = 1491)

T/r	Savollar	Javoblar			
		Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
		Ha	Yo‘q	Ha	Yo‘q
		Soni/foizi	Soni/foizi	Soni/foizi	Soni/foizi
1	Siz sportga qiziqasizmi?	361/48 %	385/52 %	348/47 %	397/53 %
2	Oila a’zolariga mehribon bo‘lish?	48/6 %	698/94 %	46/6 %	699/94 %
3	Tengdoshlaringiz bilan o‘yinlarni qiziqib o‘ynaysizmi?	319/43 %	427/57 %	320/43 %	425/57 %
4	Sport musobaqalarida ishtirok etgansizmi	128/17 %	618/83 %	122/16 %	623/84 %
5	Uy sharoitida o‘yinlar o‘ynaysizmi?	264/35 %	482/65 %	267/36 %	478/64 %
6	Sport to‘garaklariga qatnashasizmi?	184/25%	562/75 %	180/24 %	565/76 %
7	Kattalarga hurmat ko‘rsatish nima uchun muhim, bilasizmi?	104/14 %	642/86 %	98/13 %	647/87 %
8	Umuminsoniy qadriyatlarga nimalar kirishini bilasizmi?	78/10 %	668/90 %	77/10 %	668/90 %
9	Ertalabki badantarbiya bilan shug‘ullanasizmi?	152/20 %	594/80 %	144/19 %	601/81 %
10	Quvnoq daqiqa mashqlarini bilasizmi?	182/24 %	564/76 %	188/25 %	557/75 %
11	Katta tanaffusda harakatli o‘yinlarni o‘ynaysizmi?	273/37 %	473/63 %	271/36 %	474/64 %
12	Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari haqida tushunchaga egamisiz?	97/13 %	649/87 %	91/12 %	654/88 %
13	“Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari haqida ma’lumotga egamisiz?	44/6 %	702/94 %	41/5 %	704/95 %
14	O‘zbekistonlik mashhur sportchilar haqida ma’lumotga egamisiz?	209/28 %	537/72 %	202/27 %	543/73 %
15	Jismoniy tarbiya darsini yoqtirasizmi?	358/48 %	388/52 %	361/48 %	384/52 %
16	Navro‘z bayramida milliy o‘yinlarni o‘ynaganmisiz?	267/36 %	479/64 %	257/34 %	488/66 %
17	Mahalla qoshida o‘tkazilgan sport musobaqalariga oilaviy qatnashganmisiz?	88/12 %	658/88 %	81/10 %	664/90 %
18	Jasurlik tuyg‘usi haqida ma’lumotga egamisiz?	77/10 %	669/90 %	72/10 %	673/90 %
19	Mardlik xislati degan tushunchaga egamisiz?	98/13 %	648/87 %	99/13 %	646/87 %
20	Vatanparvarlik his-tuyg‘usi degan tushunchaga egamisiz?	152/20 %	594/80 %	97/13 %	648/87 %

Dastlabki so‘rovnoma natijalari tahlili boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga oid qiziqishlari, amaliy ishtiroki hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar haqidagi bilimlarida ayrim muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, jismoniy tarbiya darsini yoqtirish ko‘rsatkichi tajriba va nazorat guruhlarida 48 foizni, sportga qiziqish esa mos ravishda 48 va 47 foizni tashkil etdi. Shu bilan birga, sport musobaqalarida ishtirok etish ko‘rsatkichlarining 16–17 foiz, sport to‘garaklariga qatnashishning 24–25 foiz darajasida ekanligi o‘quvchilarni jismoniy faollikka kengroq jalb etish zarurligini ko‘rsatadi.

Ma’naviy-axloqiy qadriyatlarga oid javoblar ham alohida e’tiborni talab qiladi. Jumladan, kattalarga hurmatning ahamiyatini bilish tajriba guruhida 14 foiz, nazorat guruhida 13 foizni, mehribonlikning ahamiyatini bilish esa har ikki guruhda 10 foizni tashkil etgan. Vatanparvarlik tushunchasi bo‘yicha ko‘rsatkich tajriba guruhida 12 foiz, nazorat guruhida 11 foiz bo‘lib, ushbu yo‘nalishda guruhlar o‘rtasida uncha farq mavjud emasligi aniqlandi.

Umuman, dastlabki diagnostika natijalari jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari va sport tadbirlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish maqsadida tizimli foydalanish zarurligini ko‘rsatdi. Shu sababli keyingi bosqichda milliy harakatli o‘yinlar, jamoaviy musobaqalar, savol-javob, ko‘rgazmali vositalar va pedagogik kuzatish usullarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos jismoniy tarbiya va sport tadbirlari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ular tasnifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb topildi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ular tasnifini ishlab chiqish, ularning jismoniy tarbiya faoliyatida namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlarini belgilash va tasnifni pedagogik jihatdan asoslash hisoblanadi.

3-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos jismoniy tarbiya va sport tadbirlari hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ular tasnifi

<table>
<tr><th colspan="2">JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARI TASNIFI</th><th colspan="2">TUYG‘ULAR TASNIFI</th></tr>
<tr><td>Jismoniy tarbiya tadbirlari</td><td>Sport tadbirlari</td><td>Milliy qadriyatlarga asoslangan</td><td>Umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan</td></tr>
<tr><td>1. Jismoniy tarbiya darslari</td><td>1. Sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlar</td><td rowspan="3">Vatanparvarlik
Ona yurtni sevish, uning ravnaqi va tinchligi uchun fidoyi bo‘lish</td><td>Jamoaviylik – jamoa bo‘lib birlashish, o‘zaro yordam</td></tr>
<tr><td rowspan="2">2. Milliy va harakatli o‘yinlar</td><td rowspan="2">2. Sport bayramlari va musobaqalar</td><td>Mardlik – qiyinchilikda to‘g‘rilik va oliyjanoblikni saqlash</td></tr>
<tr><td>Jasurlik – xavf-xatardan qo‘rqmay, maqsad sari dadil intilish</td></tr>
<tr><td>3. Yengil atletika elementlari</td><td>3. Ommaviy sport tadbirlari</td><td rowspan="2">Milliy iftixor
Xalqning tarixiy merosi, urf-odat va an’analaridan faxrlanish, ularni asrash</td><td>Ishonch – o‘ziga va boshqalarga ishonish</td></tr>
<tr><td>4. Gimnastika mashqlari</td><td>4. Katta tanaffusdagi o‘yinlar</td><td>Sabrlilik – toqat, chidam, iroda va qanoat</td></tr>
</table>

3-jadval davomi

5. Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar	5. Sayr va turistik tadbirlar	Sadoqatlilik Do‘stiga, xalqiga va Vataniga sodiq bo‘lish	Rostgo‘ylik – to‘g‘ri so‘zlik, haqiqatga intilish
			Samimiylik – chin ko‘ngildan, beg‘araz munosabat
6. Nazariy bilimlar (oddiy tushunchalar)	6. Ota-ona bilan hamkorlikda estafeta o‘yinlar		Tinchliksevarlik – raqibni hurmat qilish, adolatli o‘ynash, do‘stlikni asrash

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya faoliyatida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik modeli ishlab chiqildi. Mazkur modelning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni shakllantirishdan iborat.

4-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik model

Model komponentlari	**Mazmuni**
Maqsadi	Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni shakllantirish.
Vazifalari	1) qadriyatlar haqida tasavvur berish; 2) milliy tuyg‘ularni tarbiyalash; 3) umuminsoniy tuyg‘ularni rivojlantirish; 4) tuyg‘ularni xulqda namoyon etish; 5) oila, maktab, mahalla hamkorligi.
Mazmuni	**Jismoniy tarbiya tadbirlari:** Jismoniy tarbiya darslari; Milliy va harakatli o‘yinlar; Yengil atletika; Gimnastika; Sog‘lomlashtiruvchi mashqlar; Nazariy bilimlar. **Sport tadbirlari:** Sinfdan tashqari tadbirlar; Sport bayramlari; Ommaviy sport tadbirlari; Tanaffusdagi o‘yinlar; Sayr va turizm; Oilaviy estafetalar. **Milliy tuyg‘ular:** Vatanparvarlik; Milliy iftixor; Sadoqatlilik. **Umuminsoniy tuyg‘ular:** Jamoaviylik; Mardlik; Jasurlik; Ishonch; Sabrlilik; Rostgo‘ylik; Samimiylik; Tinchliksevarlik.
Amalga oshirish shakllari	Jismoniy tarbiya darsi; Sport to‘garaklari; Bayram va musobaqalar; Tanaffus o‘yinlari; Sayr, ekskursiya; Oilaviy estafetalar.
Metodlari	O‘yin va musobaqa; Hikoya va suhbat; Namuna ko‘rsatish; Mashq va takrorlash; Rag‘batlantirish; Refleksiya.
Vositalari	Milliy o‘yinlar; Davlat ramzlari; Qahramonlar timsoli; Sport jihozlari; Rag‘bat nishonlari; Musiqa, ertak, she’r.
Pedagogik shart-sharoitlar	Yoshga moslik; Tadbir maqsadini rejalashtirish; O‘qituvchi namunasi; Ijobiy emotsional muhit; Uch tomonlama hamkorlik; Tizimlilik va uzviylik.
Darajalari	Mezonlar: kognitiv, hissiy-motivatsion, xulq-faoliyat. Yuqori – mustaqil va barqaror namoyon etadi; O‘rta – rag‘bat bilan namoyon etadi; Past – beqaror, yo‘naltirish talab etadi.
Kutilayotgan natija	Jismonan sog‘lom, vatanparvar, jamoaviy, halol va tinchliksevar o‘quvchi shaxsi shakllanadi.

Shunday qilib, maktab, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan mazkur yondashuv jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini yagona pedagogik tizimga birlashtirishga xizmat qiladi. Hamkorlik mexanizmlarini maqsadli rejalashtirish, mazmunan muvofiqlashtirish va natijadorligini baholash orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni shakllantirishning uzluksizligini ta’minlash imkoniyati yaratiladi.

5-jadval

3–4-sinf o‘quvchilari uchun “Maktab – oila – mahalla” hamkorligida tavsiya etilgan tadbirlar rejasi (2019–2021-yillarga mo‘ljallangan)

Tadbir nomi	Mazmuni	Ishtirokchilar	Mas’ullar	Singdirish mexanizmi	Kutilayotgan natija
2019-yil (an’anaviy sharoit)					
1. “Oilaviy quvnoq startlar”	Ota-ona va farzandlardan iborat oilaviy jamoalar o‘rtasida estafeta va harakatli o‘yinlar	3–4-sinf o‘quvchilari, ota-onalar, mahalla faollari	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, sinf rahbari, ota-onalar qo‘mitasi	Oila bo‘lib bellashish, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, “halol o‘yin” qoidasi	Jamoaviylik Ishonch Samimiylik
2. “Chempion bilan uchrashuv”	Mahalladagi taniqli sportchi bilan suhbat va mahorat darsi	3–4-sinf o‘quvchilari, ota-onalar, sportchilar	Ma’naviyat bo‘yicha o‘rinbosar, mahalla yoshlar yetakchisi	Ibrat (namuna) ko‘rsatish, qahramonga taqlid, savol-javob	Jasurlik Sabrlilik Milliy iftixor
2020-yil (COVID-19 karantini)					
3. “Vatan himoyachilari” sport musobaqasi	Madhiya ostida saf tortish, harbiy-sport estafetalari, faxriylar bilan uchrashuv	3–4-sinf o‘quvchilari, harbiy xizmatchi ota-onalar, faxriylar	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, sinf rahbari, mahalla yoshlar yetakchisi	Qahramon timsoli, davlat ramzlari, shaxsiy namuna ko‘rsatish	Vatanparvarlik Mardlik Jasurlik
4. “Sog‘lom oila – sog‘lom farzand”	Karantin davrida uyda oilaviy ertalabki badantarbiya, “Sport-chellenj” videolari va onlayn “Sog‘lomlik kundaligi”	3–4-sinf o‘quvchilari, oila a’zolari (onlayn)	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, sinf rahbari, mahalla faollari (onlayn maslahat)	Kattalar namunasi, muntazamlik, “Sog‘lomlik kundaligi” yuritish	Sabrlilik Ishonch Rostgo‘ylik
2021-yil (bosqichma-bosqich tiklanish)					

5-jadval davomi

5. “Milliy o‘yinlar bayrami”	Navro‘z munosabati bilan chillak, lappak, oq terakmi – ko‘k terak o‘yinlari ochiq havoda; bobolar o‘yin tarixini so‘zlab beradi	3–4-sinf o‘quvchilari, bobo-buvilar, mahalla faollari	Jismoniy tarbiya o‘qituvchisi, ma’naviyat bo‘yicha o‘rinbosar, mahalla raisi	Avlodlar muloqoti, o‘yin orqali an’anani o‘rganish va davom ettirish	Milliy iftixor Vatanparvarlik Sadoqatlilik
6. “Mahalla sport festivali”	Mini-futbol, arqon tortish, «Do‘stlik estafetasi» – mahallalar va 3–4-sinflar o‘rtasida	3–4-sinf o‘quvchilari, ota-onalar, qo‘shni mahallalar jamoalari	Mahalla raisi, maktab direktori, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi	“Halol hakam” usuli, raqib bilan qo‘l berib ko‘rishish, adolatli baholash	Tinchliksevarlik Rostgo‘ylik Jamoaviylik

Tadqiqotning ikkinchi bosqichida (2021–2022-yillar) dastlabki diagnostika natijalari, o‘rganilgan ilmiy-metodik manbalar hamda “Maktab – oila – mahalla” hamkorligida tashkil etish uchun ishlab chiqilgan tadbirlar rejasi asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni jismoniy tarbiya va sport faoliyati vositasida shakllantirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur ishlab chiqildi.

6-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni jismoniy tarbiya va sport faoliyati orqali singdirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur

Maqsad maqsadi	
Jismoniy tarbiya va sport faoliyatini dars, darsdan tashqari ishlar, oila va mahalla imkoniyatlari bilan integratsiyalash asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni tizimli shakllantirish.	
T/r	**Dasturning vazifalari**
1	Qadriyatlar va tuyg‘ular haqida yoshga mos bilim va tasavvurlarni shakllantirish.
2	Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tarbiyaviy mazmun bilan boyitish.
3	O‘yin va musobaqada tuyg‘ularni xulqda namoyon etish ko‘nikmasini hosil qilish.
4	Jismoniy tarbiyani tarbiya, o‘qish, musiqa, tasviriy san’at fanlari bilan bog‘lash.
5	Maktab – oila – mahalla hamkorligini tizimli yo‘lga qo‘yish.
6	Tuyg‘ularning shakllanganlik darajasini muntazam tashxislash va tuzatish.
Dasturning mazmuniy yo‘nalishlari	

6-jadval davomi

Yo‘nalish	Tarbiyalanadigan tuyg‘ular	Asosiy vositalar va tadbirlar
1. Milliy-vatanparvarlik	Vatanparvarlik, Milliy iftixor, Sadoqatlilik	Milliy o‘yinlar, davlat ramzlari, milliy qahramonlar timsoli, “Vatan himoyachilari” musobaqasi
2. Jamoaviy-axloqiy	Jamoaviylik, Rostgo‘ylik, Samimiylik, Tinchliksevarlik	Jamoaviy o‘yinlar, estafetalar, “halol o‘yin” qoidalari, mahalla sport festivali
3. Irodaviy-shaxsiy	Mardlik, Jasurlik, Ishonch, Sabrlilik	Yengil atletika, gimnastika, sog‘lomlashtiruvchi mashqlar, chempion bilan uchrashuv
4. Integrativ-hamkorlik	Fanlararo bog‘liqlik, Oila va mahalla	Tarbiya, o‘qish, musiqa darslari bilan bog‘lash; oilaviy startlar, mahalla tadbirlari

Dasturni amalga oshirish bosqichlari

Bosqich	Muddati	Mazmuni
1. Tayyorlov-tashxis	1-sinf boshi	Boshlang‘ich darajani aniqlash, ishni rejalashtirish, o‘qituvchi va ota-onalarni tayyorlash
2. Bilish-motivatsion	1–2-sinflar	Hikoya, suhbat, milliy o‘yinlar bilan tanishtirish, qadriyatlarga qiziqish uyg‘otish
3. Faoliyatli-amaliy	3–4-sinflar	Musobaqa, jamoaviy tadbirlar, “Maktab – oila – mahalla” tavsiya etilgan rejasi
4. Yakuniy-reflektiv	4-sinf oxiri	Natijani baholash, refleksiya, yutuqlarni umumlashtirish va tuzatish

Shakllanganlik mezonlari

Mezon	Ko‘rsatkichlar	Tashxis usullari
Kognitiv (bilish)	Qadriyat va tuyg‘ularni biladi, ularning mazmunini tushuntira oladi	Suhbat, savol-javob, rasmli topshiriqlar
Hissiy-motivatsion	Tuyg‘ularga ijobiy munosabatda, ularni namoyon etishga intiladi	So‘rovnoma, “tugallanmagan gaplar” usuli
Xulq-faoliyat	O‘yin, musobaqa va kundalik hayotda tuyg‘ularni namoyon etadi	Kuzatish, “Mening yutuqlarim” kundaligi

Shakllanganlik darajalari

Daraja	Tavsifi
Yuqori	Mustaqil va barqaror namoyon etadi
O‘rta	Rag‘bat bilan namoyon etadi
Past	Beqaror, yo‘naltirish talab etadi

Dasturning yakuniy pedagogik mexanizmi		
№	**Mexanizm bosqichi**	**Mazmuni**
1	Bilaman	Qadriyat haqida tasavvur

6-jadval davomi

2	His qilaman	O‘yin va musobaqadagi kechinma
3	Bajaraman	Tuyg‘uni faoliyatda namoyon etish
4	Odatga aylantiraman	Takrorlash, rag‘bat, oila va mahalla qo‘llovi
5	Baholayman	Refleksiya va teskari aloqa

Dasturning kutiladigan yakuniy natijasi	
Kimda	**Kutiladigan natija**
O‘quvchida	Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni biladi, 11 ta tuyg‘uni o‘yin, musobaqa va hayotda barqaror namoyon etadi; yuqori va o‘rta darajalar ulushi ortadi
O‘qituvchida	Jismoniy tarbiya orqali tuyg‘ularni singdirishning tizimli metodikasi va tashxis vositalari shakllanadi
Oila va mahallada	Farzand tarbiyasida maktab bilan hamkorlik mustahkamlanadi, sog‘lom turmush tarzi qo‘llab-quvvatlanadi
Yakuniy natija: jismonan sog‘lom, vatanparvar, jamoaviy, halol va tinchliksevar shaxs tarbiyalanadi.	

Ishlab chiqilgan integrativ pedagogik dastur boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy qadriyatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan kompleks tizim sifatida ishlab chiqildi. Uning bosqichlari, mazmuni, metodik yondashuvlari va amalga oshirish mexanizmlari ilmiy asosda ishlab chiqilib, fanlararo integratsiya, interaktiv usullar hamda amaliy faoliyatga tayangan holda o‘quvchilarda qadriyatlarga sodiqlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali vosita sifatida tavsiya etilgan.

Uchinchi bosqichda (2022–2024 yy.) tajriba-sinov ishlari yakunlanib, eksperimental dastur samaradorligi kompleks tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari natijalari baholanib, tadqiqot natijalari tizimlashtirildi va umumlashtirildi. shuningdek, ilmiy maqolalar chop etildi hamda yakuniy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalarini tasdiqlovchi dalolatnomalar va tegishli hujjatlar rasmiylashtirilib, himoyaga tayyorlandi. Olingan ilmiy natijalar asosida dissertatsiyaning uchinchi bobi shakllantirilgan.

Dissertatsiyaning **“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish samaradorligi”** deb nomlangan uchinchi bobida boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan mashg‘ulotlarda turli metodik yondashuvlar qo‘llanildi. Jismoniy tarbiya darslari, sinfdan tashqari va maktabdan tashqari tadbirlar doirasida qadriyatlarga oid mavzular yoritildi. Shu bilan birga, maxsus ishlab chiqilgan o‘quv qo‘llanma o‘qituvchilar orasida keng joriy etildi hamda videomateriallar, ko‘rgazmali vositalar va sportchilar bilan uchrashuvlar orqali o‘quvchilarning qiziqishi oshirildi.

7-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali qadriyatlarga yo‘naltirilgan tarbiyani amalga oshirishga qaratilgan metodik yondashuvi

T/n	Metodlar guruhi	Metodika yoki o‘yin turi	Qo‘llanish shakli	Tarbiyaviy ahamiyati	TG o‘quvchilar soni (n=746)	TG o‘rtacha ko‘rsatkich 3,99	NG o‘quvchilar soni (n=745)	NG o‘rtacha ko‘rsatkich 3,89
1	Ko‘rgazmali metod	Taniqli sportchilar haqidagi videoroliklari	Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Vatanparvarlik, milliy g‘urur, Vatanga sadoqat, matonat, sabr-toqat, maqsadga intilish	77	4.10	76	3.95
2	Og‘zaki metod savol-javob	“Sen bu vazifani bajara olasanmi?” “Qaysi o‘yinda o‘zingni kuchli his qilasan?” “Agar jamoangizga rahbar bo‘lsangiz, nima qilardingiz?”	Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	O‘ziga ishonch, mas’uliyat, jasorat, qaror qabul qilish. O‘zini anglash, o‘z imkoniyatini baholash, motivatsiya. Liderlik, jamoani boshqarish, mas’uliyat, mustaqil fikrlash.	76	4.05	75	3.90
3	Amaliy metod	“Ulug‘bek izdoshlari” musobaqasi	Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Vatanparvarlik, jasorat, mardlik, milliy sport an’analari, halollik, raqobat, intizom	75	4.00	74	3.88
4	Amaliy metod	Arqon tortish o‘yini	Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Milliy an’analar, jamoaviylik, do‘stlik, hamkorlik	74	3.95	74	3.85
5	Amaliy metod	Oq terakmi, ko‘k terak o‘yini	Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Milliy qadriyatlarga hurmat, chaqqonlik, faollik	73	3.90	73	3.80
6	Amaliy metod	Quvlashmachoq o‘yini	Sinfdan va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Jamoada harakat qilish, matonat, chidamlilik	72	3.85	72	3.78
7	Amaliy metod	Belbog‘ tortish	Sinfdan va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Milliy o‘yinlarga qiziqish, jasorat, ishonch	76	4.08	75	3.92
8	Amaliy metod	Estafeta o‘yinlari	Jismoniy tarbiya darslari va sinfdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Birlik, jamoaviylik, mas’uliyat, intizom	73	3.92	74	3.87

7-jadval davomi

9	Pedagogik diagnostika	Kuzatish metodi	Barcha jarayonlarda	Odob, tartib, o‘zini nazorat qilish, mas’uliyat	74	3.98	74	3.89
10	Tarbiyaviy metod	Jamoalarga allomalar nomini berish	Sinfdan va maktabdan tashqari jismoniy tarbiya tadbirlarida	Tarixiy xotira, milliy merosga hurmat, jamoaviylik, faxr	76	4.07	78	4.06
	Jami:				**746**	**4.35**	**745**	**3.95**

Tajriba-sinov ishlari asosida qo‘llanilgan metodik yondashuv boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatlarga asoslangan his-tuyg‘ularni shakllantirishda sezilarli ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. O‘quvchilarning jismoniy tarbiya va sport faoliyatiga oid bilimlari kengaydi, mazkur yo‘nalishga nisbatan ongli munosabat shakllandi.

Tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasida qayta so‘rovnomalar o‘tkazilib, olingan natijalar taqqoslandi. Ushbu so‘rovnomada tajriba guruhining 746 nafar o‘quvchilar hamda nazorat guruhining 745 nafar o‘quvchilari ishtirokida olib borildi, tahlil qilindi, quyidagi natijalarga erishilgan va jarayon o‘zining ijobiy samarasini bergan.

8-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan o‘tkazilgan yakuniy so‘rovnoma natijalari (n = 1491)

T/r	**Savollar**	**Javoblar**			
		Tajriba guruhi		**Nazorat guruhi**	
		Ha	**Yo‘q**	**Ha**	**Yo‘q**
		Soni/foizi	**Soni/foizi**	**Soni/foizi**	**Soni/foizi**
1	Siz sportga qiziqasizmi?	684/92 %	62/8 %	348/47 %	397/53 %
2	Oila a’zolariga mehribon bo‘lish?	601/80 %	145/20 %	47/6 %	698/94 %
3	Tengdoshlaringiz bilan o‘yinlarni qiziqib o‘ynaysizmi?	612/82 %	134/18 %	320/43 %	425/57 %
4	Sport musobaqalarida ishtirok etgansizmi?	489/65 %	257/35 %	122/16 %	623/84 %
5	Uy sharoitida o‘yinlar o‘ynaysizmi?	641/86 %	105/14 %	267/36 %	478/64 %
6	Sport to‘garaklariga qatnashasizmi?	573/77 %	173/23 %	180/24 %	565/76 %
7	Kattalarga hurmat ko‘rsatish nima uchun muhim, bilasizmi?	498/67 %	248/33 %	102/13 %	643/87 %
8	Umuminsoniy qadriyatlarga nimalar kirishini bilasizmi?	469/63 %	277/37 %	77/10 %	668/90 %
9	Ertalabki badantarbiya bilan shug‘ullanasizmi?	542/73 %	204/27 %	144/19 %	601/81 %
10	Quvnoq daqiqa mashqlarini bilasizmi?	512/67 %	234/33 %	188/25 %	557/75 %
11	Katta tanaffusda harakatli o‘yinlarni o‘ynaysizmi?	638/85 %	108/15 %	271/36 %	474/64 %
12	Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari haqida tushunchaga egamisiz?	478/64 %	268/36 %	91/12 %	654/88 %
13	“Jismoniy tayyorgarlik darajasi” sport sinovlari haqida ma’lumotga egamisiz?	398/53 %	348/47 %	43/5 %	702/95 %
14	O‘zbekistonlik mashhur sportchilar haqida ma’lumotga egamisiz?	564/76 %	182/24 %	202/27 %	543/73 %
15	Jismoniy tarbiya darsini yoqtirasizmi?	628/84 %	118/16 %	361/48 %	384/52 %

8-jadval davomi

16	Navro‘z bayramida milliy o‘yinlarni o‘ynaganmisiz?	689/92 %	57/8 %	257/34 %	488/66 %
17	Mahalla qoshida o‘tkazilgan sport musobaqalariga oilaviy qatnashganmisiz?	659/88 %	87/12 %	81/10 %	664/90 %
18	Jasurlik tuyg‘usi haqida ma’lumotga egamisiz?	497/67 %	249/33 %	72/10 %	673/90 %
19	Mardlik xislati degan tushunchaga egamisiz?	465/62 %	281/38 %	99/13 %	646/87 %
20	Vatanparvarlik his-tuyg‘usi degan tushunchaga egamisiz?	474/63 %	272/37 %	97/13 %	648/87 %

Yakuniy so‘rovnoma natijalari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport faoliyati vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan his-tuyg‘ularni shakllantirishga qaratilgan metodik yondashuv natijalarini baholash imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar tajriba guruhida jismoniy faollik, qadriyatlarga oid bilimlar va ijtimoiy-axloqiy fazilatlarni anglash ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq ekanini ko‘rsatdi.

Mazkur jarayon samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba boshidagi va yakuniy bosqichdagi o‘zlashtirish natijalari solishtirilgan hamda ularning tahliliy ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

9-jadval

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga oid bilimlarini aniqlashga qaratilgan tajriba boshi va yakunidagi o‘zlashtirish natijalari

XTB ga qarashli maktablar	**Sinflar (O‘quvchilar soni)**	**O‘zlashtirish darajalari**					
		Tajriba boshida			**Tajriba oxirida**		
		Yuqori	**O‘rta**	**Past**	**Yuqori**	**O‘rta**	**Past**
Buxoro vil. 34-32-2-maktablari	Tajriba guruhi (254 nafar)	83	82	83	117	110	27
	Nazorat guruhi (243 nafar)	66	78	98	76	78	89
Samarqand vil. 12-43-60-maktablari	Tajriba guruhi (255 nafar)	85	83	84	119	104	32
	Nazorat guruhi (254 nafar)	73	81	97	79	89	86
Jizzax vil. 40-44-46-maktablari	Tajriba guruhi (237 nafar)	81	79	86	112	94	31
	Nazorat guruhi (248 nafar)	70	89	94	71	86	91
Jami:1491 nafar O‘quvchi	Tajriba guruhi (746 nafar)	**249**	**244**	**253**	**348**	**308**	**90**
	Nazorat guruhi (745 nafar)	**226**	**253**	**266**	**209**	**248**	**288**

9-jadvalda boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga oid bilimlarning tajriba boshidagi va yakunidagi o‘zlashtirish darajalari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari Buxoro,

Samarqand va Jizzax viloyatlaridagi 9 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida jami 1491 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari asosida shakllantirilgan.

Jadvalning jami qatorida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra, tajriba guruhida yuqori o‘zlashtirish darajasidagi o‘quvchilar soni tajriba boshidagi 249 nafardan 348 nafarga oshgan. Bu 99 nafar yoki boshlang‘ich ko‘rsatkichga nisbatan 39,76 foizlik o‘sishni tashkil etadi. O‘rta darajadagi o‘quvchilar soni 244 nafardan 308 nafarga ko‘payib, 64 nafar ijobiy o‘zgarish qayd etilgan. Ayni paytda past darajadagi o‘quvchilar soni 253 nafardan 90 nafarga kamayib, 163 nafar qisqarish kuzatilgan.

10-jadval

Yakuniy tajriba-sinov natijalari

Belgilangan vaqti	Guruhlar	O‘quvchilar soni	O‘zlashtirish darajalari		
			Yuqori	O‘rta	Past
Tajriba boshida	Tajriba guruhi	746	249	244	253
	Nazorat guruhi	745	209	248	288
Tajriba oxirida	Tajriba guruhi	746	348	308	90
	Nazorat guruhi	745	226	253	266


Tajriba-sinov natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi sezilarli darajada oshgan. Xususan, yuqori darajadagi o‘quvchilar soni 249 nafardan 348 nafarga oshgan, past darajadagi o‘quvchilar esa 253 nafardan 90 nafargacha kamaygan. O‘rta darajadagi o‘zgarishlar ham ijobiy tomonga siljigan. Nazorat guruhida esa o‘zgarishlar uncha katta emasligi, ya’ni yuqori darajadagi o‘sish past darajada, past darajadagi kamayish esa sezilarli emasligi kuzatildi.

O‘zlashtirish darajalarini baholashda yuqori daraja 5 ball, o‘rta daraja 4 ball va past daraja 3 ball sifatida qabul qilindi. Hisoblash natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich tajriba boshida 3,99 ni, tajriba oxirida esa 4,35 ni tashkil etdi. Shunga muvofiq, o‘sish koeffitsiyenti 1,09 ga teng bo‘ldi. Nazorat guruhida esa o‘rtacha ko‘rsatkich tajriba boshida 3,89 ni, tajriba oxirida 3,95 ni tashkil etib, o‘sish koeffitsiyenti 1,00 bo‘ldi.

Studentning t-mezoni natijalariga ko‘ra, tajriba guruhidagi boshlang‘ich va yakuniy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi ($t=8,98$; $p<0,001$). Nazorat guruhida esa boshlang‘ich va yakuniy natijalar o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ahamiyatli emasligi kuzatildi ($t=1,25$; $p=0,213$).

Shuningdek, tajriba oxiridagi tajriba va nazorat guruhlari natijalari o‘zaro taqqoslanganda, guruhlar o‘rtasida sezilarli farq mavjudligi aniqlandi. Mazkur farq statistik jihatdan ishonchli bo‘lib, $t=10,28$; $p<0,001$ ni tashkil etdi. O‘zlashtirish darajalarining taqsimoti Pearsonning χ^2 mezoni asosida ham tekshirildi va $\chi^2=118,33$; $p<0,001$ natija olindi. Bu esa tajriba guruhi foydasiga kuzatilgan o‘zgarishlar tasodifiy emas, balki statistik jihatdan ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

Demak, tajriba-sinov ishlari natijasida tajriba guruhida o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi sezilarli ravishda oshgan, nazorat guruhida esa bunday sezilarli o‘sish kuzatilmagan. Olingan natijalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg‘ularni singdirish metodikasi samarali ekanini va uning natijalari statistik jihatdan ishonchli ekanini ko‘rsatdi.



1-rasm. Tajriba va nazorat guruhlarida tajriba boshi va oxiridagi o‘rtacha ko‘rsatkichlar hamda o‘sish koeffitsiyenti

Ushbu hisoblash natijalari bo‘yicha qiyosiy diagramma ko‘rinishi:

Tajriba oxirida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlarida tajriba va nazorat guruhlaridagi bilim darajasi turli xil, ular farqi mavjud hamda ishonch oralig‘i va student statistikasi qiymatlariga ko‘ra tajriba guruhlarida samaradorlik mavjud va u 1,09 % ga teng bo‘lib, nazorat guruhlariga nisbatan 0,9 % ga yuqori ekanligini bildiradi.

XULOSALAR

Tanlangan mavzu bo‘yicha to‘plangan ilmiy-metodik manbalar, mutaxassis-olimlarning fikr-mulohazalari, pedagogik kuzatuv, so‘rovnoma va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalarining qiyosiy tahlili asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish jarayonida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining pedagogik imkoniyatlari aniqlandi. Milliy xalq o‘yinlari, sport musobaqalari, jamoaviy estafetalar va harakatli o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda vatanparvarlik, milliy an’analarga hurmat, o‘zaro yordam, hamjihatlik, do‘stlik va mas’uliyat kabi fazilatlarni shakllantirish imkoniyatlari asoslandi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga xos jismoniy tarbiya va sport tadbirlari tashkil etilish shakli va o‘tkazilish muhiti mezoni asosida ikki guruhga, dars doirasida o‘tkaziladigan sakkiz turdagi jismoniy tarbiya tadbirlari hamda darsdan va maktabdan tashqari muhitda o‘tkaziladigan sakkiz turdagi sport tadbirlari tasniflandi.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi asosiy tuyg‘ular ajratilib, ularning mazmun-mohiyati, pedagogik xususiyatlari va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy jihatdan aniqlandi. Jumladan, milliy qadriyatlarga asoslangan vatanparvarlik, milliy iftixor va sadoqatlilik tuyg‘ulari hamda umuminsoniy qadriyatlarni ifodalovchi jamoaviylik, mardlik, jasurlik, ishonch, sabrlilik, rostgo‘ylik, samimiylik va tinchliksevarlik tuyg‘ulari alohida guruhlarga ajratildi. Mazkur tuyg‘ularning mazmuni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh, psixologik va individual xususiyatlaridan kelib chiqib, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tarbiyaviy imkoniyatlari bilan o‘zaro bog‘liq holda asoslandi. Natijada milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘quvchilarning nafaqat bilim va tasavvurlarida, balki hissiy munosabatlari hamda kundalik xulq-atvorida namoyon etishga erishilfi.

3. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining tasnifi hamda ularda shakllantirilishi ko‘zda tutilgan milliy va umuminsoniy tuyg‘ular tasnifi integratsiyalash asosida takomillashtirildi. Bunda har bir sport tadbirining mazmuni, tashkil etilish shakli, ishtirokchilarning o‘zaro munosabati va tarbiyaviy yo‘nalishidan kelib chiqib, yetakchi hamda yondosh tuyg‘ular, ularni singdirishga xizmat qiluvchi pedagogik metod va usullar belgilandi. O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra, jamoaviylik tuyg‘usining 11 ta, vatanparvarlik tuyg‘usining 8 ta, sabrlilik tuyg‘usining esa 7 ta tadbir turida shakllantirish imkoniyatlari mavjudligi aniqlandi. Bu yondashuv sport tadbirlarini faqat jismoniy faollikni oshirish vositasi sifatida emas, balki muayyan qadriyatlarni maqsadli singdirishga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyat shakli sifatida rejalashtirish imkonini berdi.

4. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida sog‘lom turmush tarzi, hamjihatlik va ijtimoiy mas’uliyat tuyg‘ularini shakllantirish maqsadida jismoniy tarbiya va sport musobaqa-tadbirlarini rejalashtirishga mo‘ljallangan maktab-oila-mahalla hamkorlik moduli ta’lim-tarbiya subyektlarining vazifalarini o‘zaro muvofiqlashtirish, hamkorlik aloqalarining izchilligini ta’minlash oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Bunda maqsad, mazmun, jarayon va natija qismlaridan iborat to‘qqiz blokli pedagogik model ishlab chiqildi hamda uning samaradorligini ta’minlovchi oltita pedagogik shart yoshga moslik, tadbirning tarbiyaviy maqsadini oldindan rejalashtirish, o‘qituvchining shaxsiy namunasi, ijobiy emotsional muhit, maktab-oila-mahalla hamkorligi, 1–4-sinflar davomida tizimlilik va uzviylik asoslandi.

5. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishga yo‘naltirilgan integrativ pedagogik dastur jismoniy tarbiya darslari, darsdan tashqari sport tadbirlari, “Tarbiya”, “O‘qish”, “Musiqa” va “Tasviriy san’at” fanlarining tarbiyaviy imkoniyatlari hamda oila-mahalla hamkorligini o‘zaro uyg‘unlashtirish asosida ishlab chiqildi. Dasturning mazmuniy-tuzilmaviy asosini to‘rtta yo‘nalish va to‘rtta pedagogik bosqich tashkil etib, qadriyatlarni o‘zlashtirish jarayoni “Bilaman-His qilaman-Bajaraman-Odatga aylantiraman-Baholayman” izchil pedagogik mexanizmi asosida tashkil etildi hamda uning amaliy samaradorligi ilmiy asoslab berildi.

6. Tuyg‘ularning shakllanganlik darajasini baholash uchun kognitiv, hissiy-motivatsion va xulq-faoliyat mezonlari hamda yuqori, o‘rta va past darajalar belgilandi; ular suhbat, so‘rovnoma, kuzatish va “Mening yutuqlarim” kundaligi orqali aniqlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos tuyg‘ularni shakllantirishning konseptual modeli maqsadli, mazmuniy, faoliyatli, motivatsion-emotsional va natijaviy komponentlarning uzviy bog‘liqligi, qadriyatlarga yo‘naltirilgan pedagogik ta’sir mexanizmlarini model tavsiyalar berildi. Natijada, baholash mezonlariga ko‘ra yuqori daraja 5 ball, o‘rta daraja 4 ball va past daraja 3 ball sifatida qabul qilindi. Hisob-kitob natijalari shuni ko‘rsatdiki, tajriba guruhida o‘rtacha ko‘rsatkich 3,99 dan 4,35 ga oshib, o‘sish koeffitsiyenti 1,09 ni tashkil etdi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 3,89 dan 3,95 ga ko‘tarilib, o‘sish koeffitsiyenti 1,00 darajasida qoldi.

7. Tajriba-sinov ishlari Buxoro (2, 32, 34-sonli), Samarqand (12, 43, 60-sonli) va Jizzax (40, 44, 46-sonli) viloyatlaridagi 9 ta umumiy o‘rta ta’lim maktabida, tajriba guruhida 746 nafar va nazorat guruhida 745 nafar o‘quvchi ishtirokida o‘tkazildi. Tajriba guruhida o‘rtacha

ko‘rsatkich 3,99 dan 4,35 ga oshdi (t = 8,98), nazorat guruhida esa 3,89 dan 3,95 ga o‘zgarib, bu farq statistik jihatdan ishonchli bo‘lmadi (t = 1,25). Yakuniy bosqichda tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq statistik jihatdan ishonchli ekanligi aniqlandi (t = 10,28; χ^2 = 118,33). Samaradorlik koeffitsiyenti tajriba guruhida 1,09 ni, nazorat guruhida 1,00 ni tashkil etdi.

8. Maktab-oila-mahalla hamkorligida o‘tkaziladigan tadbirlar rejasi (jumladan, «Dadam, oyim va men-sportchi oila» estafetalari) ishlab chiqildi; u sadoqatlilik, jamoaviylik va samimiylik tuyg‘ularini oila, maktab va mahalla hamkorligida mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘tkazilgan nazariy tahlil va tajriba-sinov ishlarining natijalari tadqiqot boshida ilgari surilgan ilmiy farazning asosli ekanini to‘liq tasdiqladi. Shunga qaramay, ishda bayon etilgan xulosa va tavsiyalar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya va sport vositasida qadriyatlarga asoslangan tarbiyani rivojlantirish masalasini to‘liq hal etdi, deb bo‘lmaydi. Ushbu muammoning boshqa qirralari alohida ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

AMALIY TAVSIYALAR

1. Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Respublika ta’lim markaziga: boshlang‘ich sinflar “Jismoniy tarbiya” fani o‘quv dasturi va metodik qo‘llanmalarida har bir bo‘lim uchun tarbiyaviy maqsad (shakllantiriladigan tuyg‘u) va uni singdirish usulini ko‘rsatishda dissertatsiyada ishlab chiqilgan tadbir–tuyg‘u moslik jadvalidan foydalanish tavsiya etiladi.

2. Jismoniy tarbiya va boshlang‘ich sinf o‘qituvchilariga: dars va tadbirlarni rejalashtirishda har bir mashg‘ulotning yetakchi tuyg‘usini oldindan belgilash; saf mashqlarida Davlat madhiyasi ostida saf tortish, milliy o‘yinlarda (chillak, “Oq terakmi – ko‘k terak”, lappak) o‘yinning kelib chiqishi haqida hikoya qilish, musobaqalarda halol hakamlik va g‘olib hamda mag‘lub tomonning bir-birini samimiy tabriklashi kabi usullarni muntazam qo‘llash tavsiya etiladi.

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari rahbariyati (ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari) va sinf rahbarlariga: sport bayramlari va musobaqalarni tarbiyaviy ssenariy asosida (bayroq ko‘tarish, Davlat madhiyasi ijrosi, g‘oliblarni taqdirlash marosimi) o‘tkazish hamda “Maktab–oila–mahalla” hamkorligi rejasini maktabning yillik tarbiyaviy ish rejasiga kiritish tavsiya etiladi.

4. Maktab amaliyotchi psixologlari va o‘qituvchilarga: o‘quv yili boshida va oxirida o‘quvchilarda tuyg‘ularning shakllanganlik darajasini kognitiv, hissiy-motivatsion va xulq-faoliyat mezonlari bo‘yicha suhbat, so‘rovnoma, kuzatish va “Mening yutuqlarim” kundaligi orqali tashxis o’tkazib, natijalarga ko‘ra tarbiyaviy ishga tuzatishlar kiritib borish tavsiya etiladi.

5. Pedagogika oliy ta’lim muassasalari hamda pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish muassasalariga: jismoniy madaniyat va boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishlari o‘quv rejalariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishning pedagogik modeli va integrativ pedagogik dasturini o‘rgatuvchi mavzu yoki modul kiritish tavsiya etiladi.

УЧЕНЫЙ СОВЕТ DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА

ДЖИЗАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ

АТАМУРОДОВ ШОДИЁР УРАЛОВИЧ

ПРИВИТИЕ УЧАЩИМСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ ПОСРЕДСТВОМ ФИЗКУЛЬТУРНО-СПОРТИВНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ

13.00.01 - Теория педагогики. История педагогических учений

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD)

Чирчик - 2026

Тема диссертации на соискание ученой степени диссертации доктора философии по педагогическим наукам (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2025.4.PhD/Ped749.

Диссертация выполнена в Джизакском государственном педагогическом университете

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-сайте Научного совета (www.jtsu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:	**Ахмедов Фуркат Кулдашевич** кандидат педагогических наук, профессор
Официальные оппоненты:	**Шопулатов Абдималик Нуруллаевич** доктор педагогических наук (DSc), профессор
	Адизов Бахтиёр Рахмонович доктор педагогических наук (DSc), профессор
Ведущая организация:	**Термезский государственный университет**

Защита диссертации состоится «____» _____ 2026 года в «____» часов на заседании Научного совета DSc.28/2025.27.12.Ped.02.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта. (Адрес: 111709, Ташкентская область, город Чирчик, улица Спортчилар, 19. Тел.: (0-370) -717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76, Веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, здание А, 1-й этаж, конференц-зал 118).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована за № 0274) по адресу: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, дом 19. Тел.: (0-370) -717-17-79, 717-27-27, факс: (0-370) 717-17-76).

Автореферат диссертации распространен «___» _____ 2026 года.
(Протокол реестра под номером №___ от «____» _____ 2026 года).

Р.М.Маткаримов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

Ходжамкелдиев Г.С.
Ученый секретарь Ученого совета по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), доцент

Олимов М.С.
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, д.п.н. (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Во всем мире особое внимание уделяется воспитанию подрастающего поколения всесторонне развитыми личностями, их воспитанию в духе национальных и общечеловеческих ценностей, а также формированию уважительного отношения к историческим традициям и обычаям. Посредством привития учащимся начальных классов богатого исторического наследия, национальных игр и ценностей народа расширяются возможности для формирования у них таких качеств, как патриотизм, сплоченность, взаимное уважение, честность и гуманизм. Поэтому эффективное использование воспитательных возможностей народных игр и традиций национального движения в образовательном процессе, внедрение в сознание молодого поколения ценностей, унаследованных от предков, признается одним из приоритетных направлений. Поэтому целевое использование народных игр в воспитании учащихся начальных классов на основе национальных и общечеловеческих ценностей сегодня приобретает актуальное значение.

В мире в условиях процессов глобализации проводятся научные исследования, направленные на воспитание учащихся начальных классов на основе национальных и общечеловеческих ценностей, использование воспитательных возможностей этнопедагогического наследия и интеграцию средств физического воспитания в образовательно-воспитательный процесс. Особое внимание уделяется выявлению педагогических условий формирования у учащихся таких ценностей, как патриотизм, солидарность, взаимное уважение, ответственность, честность посредством народных игр и подвижных игр. Вместе с тем, вопросы систематизации содержания привития учащимся начальных классов национальных и общечеловеческих ценностей, оценки уровня их сформированности, интеграции сотрудничества школа-семья-махалля в образовательный процесс изучаются как актуальное педагогическое направление. Однако возникает необходимость объединения воспитательных возможностей подвижных игр в единую педагогическую систему, разработки интегративной программы, направленной на поэтапное привитие ценностей, и обоснования ее эффективности.

В нашей республике особое внимание уделяется воспитанию подрастающего поколения физически здоровым, духовно развитым, формированию у них чувства уважения к национальным и общечеловеческим ценностям, эффективному использованию богатого духовного наследия и национальных традиций народа в образовательном процессе. В связи с этим определены такие важные задачи, как коренное совершенствование преподавания физической культуры в общеобразовательных школах, широкое привлечение учащихся к регулярным занятиям физической культурой и спортом, налаживание деятельности школьных спортивных клубов и развитие профессионального мастерства учителей физической культуры[1]. Использование

[1]Постановление Президента Республики Узбекистан от 15 ноября 2024 года No ПП-392 «О мерах по коренному совершенствованию преподавания предмета «Физическая культура» в

подвижных игр в процессе воспитания учащихся начальных классов расширяет возможности формирования у них таких ценностей, как патриотизм, солидарность, взаимное уважение, честность и толерантность. Поэтому необходимость целенаправленного внедрения воспитательных возможностей подвижных игр в содержание начального образования, совершенствования педагогических средств и методов, направленных на формирование национальных и общечеловеческих ценностей, определяет актуальность темы.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит обеспечению выполнения задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан No УП-5712 «Об утверждении Концепции развития системы народного образования Республики Узбекистан до 2030 года» от 29 апреля 2019 года, No УП-6099 О мерах по широкому внедрению здорового образа жизни и дальнейшему развитию массового спорта» от 30 октября 2020 года, No УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, No УП-5924 «О мерах по дальнейшему совершенствованию и популяризации физической культуры и спорта в Республике Узбекистан» от 24 января 2020 года, Постановлении Президента Республики Узбекистан No ПП-392 «О мерах по коренному совершенствованию преподавания физической культуры в общеобразовательных школах и развитию профессиональной деятельности учителей данного предмета» от 15 ноября 2024 года, а также в других нормативно-правовых документах, связанных с данной деятельностью.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики: Диссертационное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Степень изученности проблемы. Учеными нашей республики широко исследованы педагогические возможности использования средств физической культуры и спорта в процессе воспитания учащихся начальных классов, внедрения народных и подвижных игр в учебно-воспитательный процесс, а также внедрения национальных и общечеловеческих ценностей в сознание учащихся. В частности, в научных исследованиях таких ученых, как Т.Абдуллаев, О.Мусурмонова, К.Н.Назаров, К.Д.Ярашев, М.Куронов, Ж.Туленов, М.С.Ахматов, Б.Р.Адизов, Ф.К.Ахмедов, Ш.К.Марданов, Р.С.Саламов, Ф.А.Керимов, Ш.З.Тайланова, И.И.Саидов, Б.А.Махмудов, А.Н.Шопулатов, Н.И.Давронов[2] освещены теоретико-

общеобразовательных школах и развитию профессиональной деятельности учителей данного предмета».

[2] Абдуллаев Т. Турмуш соҳасида миллий ва умуминсоний қадриятларнинг диалектикаси: педагогика фанлари номзоди диссертацияси. – Т., 1992. – 158 б.; Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчиларининг маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: педагогика фанлари доктори диссертацияси. – Тошкент, 1993. – 364 б.; Назаров Қ.Н. Қадриятлар тизими: барқарорлик ва ўзгарувчанлик диалектикаси: фалсафа фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Тошкент: ТошДУ, 1996. – 36 б.; Ярашев К.Д. Оммавий соғломлаштирувчи жисмоний тарбия ва халқ миллий

методические основы физической культуры и спорта, массовая оздоровительная деятельность, направленная на укрепление здоровья населения, формирование духовной культуры у учащихся, развитие системы ценностей, интеграция национальных традиций в образовательно-воспитательный процесс, а также научно-педагогические основы национального воспитания.

